

CHET TILI TA'LIMIDA TALABALARNING METAKOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Tayanch doktorant: Kurbanbayeva Dilnoza Sharofidinovna

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

e-mail: dilnozakurbanbayeva7@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada chet tili ta'limida talabalarning metakompetensiyasini shakllantirish masalasi yoritilgan. Metakompetensiya tushunchasining nazariy asoslari, tarkibiy qismlari, uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlar va zamonaviy texnologiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur kompetensiyani shakllantirishda refleksiya, mustaqil ta'lim va metakognitiv nazoratning roli amaliy tajriba asosida asoslab berilgan. Metakompetensiyaning mohiyati, chet tili o'rganishda tutgan o'rni, hamda uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik metodlar (metakognitiv yondashuvlar, reflektiv o'rganish, muammoli ta'lim, o'z-o'zini baholash) tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida turli olimlarning g'oyalari, metodik qarashlari va xalqaro tajribalar asosida ilmiy iqtiboslar keltirilgan. Maqola til o'rgatish jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'limning ahamiyatini asoslab beradi.

Kalit so'zlar : metakompetensiya, chet tili ta'limi, metakognitiv nazorat, refleksiya, interaktiv texnologiyalar.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida chet tillarini o'rganish hayotiy zaruratga aylanmoqda. Bu esa til o'rgatish jarayonida faqat lingvistik bilimlarni emas, balki umumiy va metako'nikmalarni ham rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Global axborot maydonida kerakli axborotni saralay oladigan, keng dunyoqarashli, mustaqil fikrlovchi va o'z bilimni doimiy ravishda rivojlantiradigan shaxsni tayyorlash bugungi ta'limning asosiy vazifasidir. Ayniqsa, chet tilini o'zlashtirish jarayonida bu sifatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday ko'nikmalar majmui "metakompetensiya" atamasi bilan ifodalanadi.

Metakompetensiya – bu o'quvchining o'z o'quv faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish, baholash va tahlil qilishga qodir bo'lgan yuqori darajadagi kompetensiyalar yig'indisidir. Zamonaviy didaktikada metakompetensiya bu — o'z-o'zini anglash, faoliyatni rejalashtirish, baholash, refleksiya qilish kabi chuqur kognitiv va ijtimoiy ko'nikmalar majmuasi sifatida qaraladi (Zeer, 2005).

Metakompetensiyaning nazariy asoslari haqida to'xtalib o'tsak, "metakompetensiya" tushunchasi 1979-yilda J. Flavell tomonidan ilgari surilgan metakognitsiya nazariyasiga tayanadi. Uning fikricha, metakognitsiya – bu insonning o'z fikrlash jarayonini anglab, uni boshqara olish qobiliyatidir. Shuningdek, L. Vygotskiy va V. Davidovlarning faoliyatga asoslangan yondashuvlari ham bu sohadagi muhim nazariy poydevor hisoblanadi. Bu yondashuvlar asosida o'quvchi faollik, o'z-o'zini boshqarish va refleksiyaga tayangan holda bilim oladi.

Chet tili o'rganish bu nafaqat yangi so'z va grammatik qoidalarni o'zlashtirish, balki kommunikativ, madaniy va reflektiv kompetensiyalarni shakllantirish jarayonidir. Metakompetensiyalar chet tilini mustaqil ravishda o'rganish, o'z-o'zini baholash va til orqali global madaniyatga integratsiyalashishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Anderson va Krathwohl ta'kidlashicha, "ta'lim oluvchilarning chuqur bilimni egallashi metakognitiv nazorat orqali amalga oshadi" (2001, p.67)

Chet tili ta'limida metakompetensiya quyidagi komponentlardan iborat:

1. Metakognitiv komponent: bilim olish jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash;
2. Refleksiv komponent: o'z faoliyati ustida fikr yuritish, natijalarni tahlil qilish;
3. Lingvistik komponent: tahliliy fikrlash orqali tildagi xatolarni aniqlash va tuzatish;
4. Motivatsion komponent: o'rganishga bo'lgan ichki ehtiyojni shakllantirish;
5. Kommunikativ komponent: chet tilidagi muloqotni rejalashtirish, strategik yondashuvlar qo'llash.

Talabalarda metakompetensiyani shakllantirish uchun bir qator metodik yondashuvlar qo'llaniladi:

- 1) Refleksiv yozuvlar (kundaliklar) – talabalar har bir darsdan so'ng o'z fikrlarini yozib boradilar;
- 2) O'z-o'zini baholash ro'yxatlari – bilim darajasini mustaqil aniqlash imkonini beradi;
- 3) Guruhli va loyihaviy ishlar – hamkorlikda ishlash orqali rejalashtirish va nazorat ko'nikmalari rivojlanadi;
- 4) Muammoga asoslangan ta'lim – real vaziyatlar asosida fikrlashni o'rgatadi;
- 5) Portfel usuli – o'quv faoliyatining natijalarini tizimli ko'rinishda baholashga yordam beradi.

Refleksiya bu — o'quvchining o'z o'rganish jarayoniga nisbatan ongli munosabati, tahlili va takomillashuvga intilishidir. Boud, Keogh va Walker (1985) reflektiv o'qitish metodikasini shunday izohlaydi: "Refleksiya bu tajribaning ma'nosini ochish va uni yangi faoliyatga tatbiq etish vositasidir" (p. 19).

Muammoli ta'lim orqali o'quvchi noaniq vaziyatlarni hal qilish, savollar qo'yish, ma'lumotlarni qidirish va fikrni asoslash ko'nikmalariga ega bo'ladi. Bu esa uning metakompetensiyalarini faollashtiradi. Savery (2006) yozadi: "Problem-based learning shaxsiy faollikni kuchaytiradi va metakognitiv nazoratni oshiradi" (p. 13).

O'zini baholash o'quvchining o'z yutuq va kamchiliklarini tahlil qilib, o'rganishga nisbatan mas'uliyatli munosabatini shakllantiradi. Andrade va Du (2007) fikricha, "o'z-o'zini baholash — bu shaxsiy kompetensiyani rivojlantirishda asosiy vosita" (p. 161).

Flavell (1979) metakognitsiyani "insonning o'z bilimlari haqida bilimi" deb izohlaydi. Bu strategiyalar til o'rganishda ongli rejalashtirish, monitoring va baholashni o'z ichiga oladi. Bu esa o'quvchining o'rganishga nisbatan faol va mustaqil yondashuvini shakllantiradi.

Aksar hollarda o'qituvchilar metakompetensiyani rivojlantirish metodlariga yetarli darajada e'tibor bermaydilar. Buning sababi — metodik savodsizlik, vaqt va

resurs tanqisligi. Bu muammoni hal qilish uchun metodik qo'llanmalar yaratish, malaka oshirish kurslari o'tkazish zarur. Interaktiv texnologiyalarning o'rni haqida to'xtalib o'tsak, zamonaviy raqamli texnologiyalar metakompetensiyani rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi:

- a) Moodle – dars materiallarini joylashtirish, mustaqil ishlash, fikr almashish va o'zlashtirishni nazorat qilish imkonini beradi;
- b) H5P – interaktiv mashqlar, testlar va video-kontent orqali reflektiv fikrlashni rag'batlantiradi;
- c) Anki – lug'at boyligini mustaqil o'zlashtirishga yordam beradi;
- d) Forumlar va bloglar – fikr almashish va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, metakompetensiyaga ega bo'lgan talabalar mustaqil ishlashga moyil bo'ladi, o'z xatolarini aniqlay oladi va bilimni samarali tarzda mustahkamlab boradi. Eksperimental darslar asosida metakompetensiya elementlari kiritilgan guruhda til o'zlashtirish darajasi yuqori bo'lganligi aniqlangan.

Chet tilini o'rgatishda metakompetensiyani shakllantirish — bu zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishidir. Bu orqali nafaqat til bilimi, balki o'quvchining shaxsiy, reflektiv, analitik va madaniy kompetensiyalari shakllanadi. Shunday ekan, til o'qitishda refleksiya, o'z-o'zini baholash, metakognitiv yondashuvlar va muammoli ta'lim metodlarini samarali uyg'unlashtirish ta'lim sifati va natijadorligini oshiradi. Chet tili ta'limida metakompetensiyani shakllantirish o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismidir. Bu kompetensiya talabalarni nafaqat chet tilini bilishga, balki uni mustaqil o'zlashtirish, amaliyotda qo'llash va o'z faoliyatini tahlil qilishga o'rgatadi. Ta'lim jarayoniga refleksiya, metakognitiv nazorat va interaktiv texnologiyalarni joriy etish orqali bu jarayonni yanada samarali qilish mumkin. Kelgusida metakompetensiyani baholovchi aniq mezonlar va test tizimlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). *A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives*. New York: Longman.
2. Andrade, H. & Du, Y. (2007). Student responses to criteria-referenced self-assessment. *Assessment & Evaluation in Higher Education*, 32(2), 159–181.
3. Boud, D., Keogh, R., & Walker, D. (1985). *Reflection: Turning experience into learning*. London: Kogan Page.
4. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). *CLIL: Content and Language Integrated Learning*. Cambridge University Press.
5. Flavell, J. H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive–developmental inquiry. *American Psychologist*, 34(10), 906–911.
6. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation. *American Psychologist*, 55(1), 68–78.
7. Savery, J. R. (2006). Overview of problem-based learning: Definitions and distinctions. *Interdisciplinary Journal of Problem-Based Learning*, 1(1), 9–20.